XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko'chasi 1

2022 - yil 4 - mart VI-42-21-5-78-K/22 Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahridagi ayrim nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-son qaroriga muvofiq shahar hududida mavjud ayrim nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlari – 1 ta maydon, 3 ta xiyobon va 2 ta qabristonni, shuningdek, "Chorbog' Zarafshon" bog'dorchilik-uzumchilik shirkati hududidagi 4 ta ko'chani nomlashga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zarafshon shahar hokimligi tomonidan shahar hududida mavjud ayrim nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlari – 1 ta maydon, 3 ta xiyobon va 2 ta qabriston, shuningdek, "Chorbog' Zarafshon" bog'dorchilik-uzumchilik shirkati hududidagi 4 ta ko'chani nomlashga oid taqdim etilgan takliflar ma'qullansin.

2. Zarafshon shahridagi nomlanayotgan ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlari ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo'limi (F.Suyundikov) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Zarafshon shahar filiali (X.Oripov), kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'limi (*lavozimiga ko'ra*), shahardagi mutasaddi davlat organlari va tashkilotlar mazkur qarorga muvofiq Zarafshon shahridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlari – 1 ta maydon, 3 ta xiyobon va 2 ta qabristonni, shuningdek, "Chorbog' Zarafshon" bog'dorchilik-uzumchilik shirkati hududidagi 4 ta ko'cha nomini davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Shahar ichki ishlar boshqarmasi (E.Yaxyoyev) yangidan nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari hududidagi yo'l belgilariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Zarafshon shahar obodonlashtirish boshqarmasi (S.Murodov) Davlat kadastrlari palatasi Zarafshon shahar filiali (X.Oripov), kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘limi (Z.Ubaydullayev) “Chorbog‘ Zarafshon” bog‘dorchilik-uzumchilik shirkati (Sh.Obidov) bilan hamkorlikda yangidan nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosarlari (A.Shoxmirzayev, O.Xakimov) xalq deputatlari shahar Kengashining ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Boltayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Radjabov**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2022 yil 4 martdagi
VI-42-21-5-78-K/22-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahridagi ayrim nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlari

RO‘YXATI

т/р	Nomlanmagan geografik obyekt turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning hozirgi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Izoh
1	2	3	4	5	6
1	Maydon	Konchilar MFY	Nomsiz	**Xotira**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Xiyobon	Geolog MFY	Nomsiz	**Kelajak bog‘i**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Xiyobon	Yoshlik MFY	Nomsiz (Favvoralar sayilgohi nomi amalda yuritiladi, lekin Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasi olinmagan)	**Farovon**	Ekspert komissiyasining xulosasiga ko‘ra, **Farovon** nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirilgan. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Xiyobon	Konchilar MFY	Nomsiz	**Yoshlar bog‘i**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

6	Qabriston	Yoshlik MFY	Nomsiz	**G‘ariblar**	Ekspert komissiyasining xulosasiga ko‘ra, **G‘ariblar** nomi “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirilgan. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Qabriston	Yoshlik MFY	Nomsiz	**Mangulik**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Ko‘cha	“Chorbog‘ Zarafshon” BUSh	Nomsiz	**Olmazor**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Ko‘cha	“Chorbog‘ Zarafshon” BUSh	Nomsiz	**O‘rikzor**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Ko‘cha	“Chorbog‘ Zarafshon” BUSh	Nomsiz	**Olchazor**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Ko‘cha	“Chorbog‘ Zarafshon” BUSh	Nomsiz	**Behizor**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq